"TASDIQLAYMAN"
Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti rektori
O.A.Ruziyev

2026-yil "12" 02

"TASDIQLAYMAN"
"O'zbektelekom" AK Janubiy filiali direktori
Sh. X. Norqo'chqorov

2026-yil "12" 02

O'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha

SHARTNOMA № 575

2026-yil "12" 02 Denov tuman

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PQ-358-son Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida Qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti (keyingi o'rinlarda institut) nomidan (bir tomondan) institut Ustavi asosida rektor **O.A.Ruziyev**, ikkinchi tomondan "O'zbektelekom" AK Janubiy filiali (keyingi o'rinlarda Filial), Ustavi asosida filial direktori Sh. X. Norqo'chqorov o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha shartnoma tuzildi.

1. Umumiy qoidalar

Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda ijtimoiy sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta'lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadida "Kompyuter injiniringi" yo'nalishlarda hamkorlik amalga oshiriladi:

1.1. Institut va Filialning o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish.

1.2. Filialning mutaxassislar tayyorlash sifatiga bo'lgan talablarini bevosita ta'lim mazmunini shakllantirishda institut professor-o'qituvchilari tomonidan tizimli o'rganib borilishini tashkil etish maqsadida stajirovkalar joriy qilish.

1.3. Rivojlangan xorijiy davlatlarning eng ilg'or tajribasini o'rgangan hamda Filialning mutaxassislarga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda o'quv rejalari, fan dasturlari, o'quv adabiyotlari, shu jumladan o'quv-metodik komplekslarni xalqaro standartlar asosida, zamonaviy, mutlaqo yangi talablar asosida ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich joriy etilishini tashkil qilishni o'zaro hamkorlikda amalga oshirish.

1.4. Hamkorlikda Filialning istiqbolli rivojlantirish dasturini hisobga olib, oliy malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini yillar kesimida aniq manzilli, ta'lim yo'nalishi hamda mutaxassisligini ko'rsatgan holda, aniq balans beradigan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqish.

1.5. Institutning ta'lim yo'nalishida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini hamkorlikda bajarish va qo'llash.

1.6. Filialning muammolarini o'rganish va ularning yechimi bo'yicha ilmiy hamda amaliy takliflar ishlab chiqish. Ilmiy maqolalar tayyorlash va ularni nashr qilish.

1.7. Hamkorlikda seminarlar o'tkazish.

1.8. Filialda talabalar amaliyotini tashkil etish.

1.9. Institut professor-o'qituvchilarining Filialda amaliy tadqiqotlar o'tkazishiga sharoit yaratib berish.

1.11. Filialning tegishli xodimlari tomonidan institut bitiruvchilarini seleksiya qilish asosida ularni amaliyotini tizimli yo'lga qo'yish.

1.12. Hamkorlikda Filialni istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

1.13. Mazkur shartnomaning tuzilishi va undagi shartlarning bajarilishi institut va Filial orasida tuziladigan o'zaro manfaatli boshqa shartnomalarga zid bo'lmasligi shart.

2. O'zaro hamkorlik bo'yicha Institutning vazifalari

2.1. Institutning sohaga oid ("Kompyuter injiniringi") ta'lim yo'nalishlaridagi har bir talabasini 2-kursdan boshlab Filialda malakaviy amaliyotlarni tizimli ravishda o'tkazilishini hamda ixtisoslik fanlarining amaliy mashg'ulotlarini bevosita ishlab chiqarishda tashkillashtirish.

2.2. Ishlab chiqarish, ilm-fan va ta'lim o'rtasida integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida Filialga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari mavzulari bazasini shakllantirishda ishtirok etish.

2.3. Institut professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari va talabalari bilan Filialga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o'tkazib borishni amalga oshirish.

2.4. Institutning soha yo'nalishlariga mos kafedralari qoshida oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlik guruhlarini shakllantirish.

2.5. O'quv materiallarini Filialning istiqbolli vazifalari va muammolari asosida yangilash va boyitib borish;

2.6. Filial rahbari va mutaxassislarini bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishi uchun sharoit yaratish;

3. O'zaro hamkorlik bo'yicha Filialning vazifalari

3.1. Institutning ("Kompyuter injiniringi") ta'lim yo'nalishlaridagi har bir talabaning 2-kursdan boshlab Filialda malakaviy amaliyotlarni tizimli ravishda o'tkazilishiga ko'maklashish va ixtisoslik fanlarining amaliy mashg'ulotlarini bevosita ishlab chiqarishda tashkillashtirishni amalga oshirishga sharoit yaratish;

3.2. Institutning sohaga mos ("Kompyuter injiniringi") ta'lim yo'nalishlari mutaxassisliklari bitiruvchilariga amaliyot bo'yicha ko'maklashish.

3.3. Ishlab chiqarish, ilm-fan va ta'lim o'rtasida integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida Filialga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari mavzulari bazasini shakllantirishda ko'maklashish.

3.4. Institut professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari va talabalari bilan Filialga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o'tkazib borishga sharoit yaratish.

3.5. Institut ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari talabalari uchun tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari bo'yicha Filialning yetakchi mutaxassislari tomonidan ma'ruzalar o'qishni tashkillashtirish.

3.6. Filialga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari bo'yicha bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari hamda kurs ishi va loyiha mavzularini shakllantirishda amaliy yordam berish, shart-sharoitlar yaratish.

3.7. Institutning sohaga mos ta'lim kafedralari qoshida shakllantiriladigan oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion korporativ guruhlarga Filialning yetuk mutaxassislarini biriktirish.

3.8. Institut professor-o'qituvchilarining Filialda amaliy tadqiqotlar o'tkazishga sharoit yaratib berish;

3.9. Filialning mutaxassislar tayyorlash sifatiga bo'lgan talablarini tizimli o'rganib borilishini tashkil etish maqsadida stajirovkalarga kelgan professor-o'qituvchilari uchun sharoitlar yaratib berish.

3.10. Filial rahbari va mutaxassislarini bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishini ta'minlash.

3.11. Institut talabasiga Filial mas'ul xodimini biriktirish, bunda biriktirilgan xodim amaliyotchi bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishini ta'minlash, Filialda amaliyotchidan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish va amaliyot davrida foydalanish uchun zaruriy materiallar ajratilishini tashkil etish.

4. Shartnomaning bajarilish muddati

4.1. Bu shartnoma imzolangan kundan boshlab **10 yil muddatga** amal qiladi.

4.2. Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni to'liq va samarali bajarish uchun har o'quv yilida tadbirlar tuziladi va tasdiqlanadi.

4.3. Qo'shimcha kelishuv asosida bu shartnomaning muddati uzaytirilishi, o'zgarishi yoki bartaraf etilishi mumkin.

4.4. Shartnoma uch nusxada tuziladi va bir xil yuridik kuchga ega.

Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti	"O'zbektelekom" AK Janubiy filiali
Manzil: Denov t., Guli Ra'no ko'chasi 1-A-uy Tel.: +998 (9_) _____	Manzil: Qarshi shahri Mustaqillik xiyoboni 7-uy Tel.: +998 (75) 221 44 11 +998 (75) 505 14 14
Institut yuristkonsulti: _____Sh. Mirzaqulov _____ _____	_____yuristkonsulti : _____ _____ _____